



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

## БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

# МАТЕРИАЛЛАРИ



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ**  
**УНИВЕРСИТЕТИ**

**МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ**

**БУХОРО МУСИҚА**  
**ФОЛЬКЛОРНИНГ ТАРИХИЙ-**  
**НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ**  
**МАСАЛАЛАРИ**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция**

**МАТЕРИАЛАРИ**

**19 октябрь**

**Бухоро - 2021**

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февральдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 31.05.2017й. ПҚ-3022 маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3990-сон қарорига мувофиқ 2021-йил “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”га бағишланган 2021 йил 19 октябрь куни Бухоро давлат университетиде “Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари” мавзусида илмий-назарий анжуман ўтказилмоқда.

Анжуманнинг мақсади-миллий, маданий ва маънавий меросимизни асрабавайлаш ва бойитиш, ўзбек мусиқа фольклорини жумладан, Бухоро мавриги ва тароналарини янада ривожлантириш, ёшларнинг маънавий-ахлоқий ва маданий даражасини янада оширишни рағбатлантириш, миллий ва жаҳон маданиятининг энг яхши намуналари билан таништириш, ёшлар онги ва қалбида мустақиллик ғоясига, юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғуларининг янада чуқур илдиз отиши, эстетик ва маданий эҳтиёжларни таъминлашга йўналтирилган маданий-оммавий тадбирлар ўтказиш, ижодкор ёшларга ҳар томонлама кўмаклашиш, маънан етук, интеллектуал ривожланган ва юқори маданиятли шахсларни тарбиялаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда Республикада ушбу соҳада эришилган илмий натижаларни амалиётга татбиқ қилиш.

**Масъул муҳаррир:**

**Б.Х.Мадримов – педагогика фанлари номзоди, профессор.**

**Тақризчилар:**

**Б.Мустафоев – педагогика фанлари номзоди, доцент**

**А.Р.Ҳамроев – педагогика фанлари номзоди, доцент**

**Тўпламга киритилган мақола ва тезислар мазмуни, илмийлиги ва далилларнинг ҳаққонийлиги учун муаллифлар масъулдирлар.**

## ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ДАСТУРИЙ ҚЎМИТАСИ

1. О.Х.Хамидов - Университет ректори, раис;
2. О.С.Қахҳоров - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари;
3. С.С.Азимов - Санъатшунослик факультети декани, п.ф.ф.д. (PhD), доцент, аъзо;
4. Т.И.Ражабов - Мусиқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) доцент, аъзо;
5. Б.Х.Мадримов - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо
6. С.Д.Дўстов - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо;
7. Д.Ю.Рузиев - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо;
- 8 У.М.Миршаев - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб;

## ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ

- 1 О.С. Қахҳоров - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис;
- 2 С.С.Азимов - С.С.Азимов
- 3 Т.И.Ражабов - Мусиқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) аъзо;
- 4 Б.Х.Мадримов - Мусиқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо
- 5 Ф.Г.Нуруллаев - Мусиқа таълими кафедраси доценти, аъзо
- 6 И.А.Қўшаев - Мусиқа таълими кафедраси аъзо катта ўқитувчиси,
- 7 У.М.Миршаев - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб
- 8 Т.Дж.Мухамедов - Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA XALQ QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH

Ibodov O'.R., BuxDU Musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham milliy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarda, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim - tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogir an'analari misolida takomillashib borgan. Kalit so'zlar: madaniyat, shaxs, axborot, ma'lumot, jarayon, me'yor, to'plam, folklor, tinglovchi, tarannum, mustaxkam. Professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, sozanda, xonandalar, katta ashulachilar, maqomlar, dostonchilar asarlarining elementlar asoslarini o'rganishni me'yorlashtirdi. O'zbek xalq qo'shiqlarining mungli, mag'rur, jozibali ohanglari inson qalbiga kuchli ta'sir etishi bilan birga, kishining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Hali yozuv bo'lmagan davrlardayoq xalq o'z qo'shiqlarida qiyin va tahlikali turmushining turli qirralaridan kuyga solib tarannum etgan. Xalq ijodini o'rganishda jiddiy e'tibor berilsa, har bir madaniyat uylari qoshida folklor ansambllari, xor jamoalari, xalq raqsi va maqomchilari gruppalari tashkil etish qiyin emas. Chunki darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchilar xalq musiqa folklori to'g'risida istagan ma'lumotni berishi mumkin. Hozirgi musiqa savodining xilma-xil formalari va axborotda boyligi bilangina emas balki texnikaviy jihatdan qo'llanganligi bilan xam ajralib turadi. O'qituvchilarning badiiy didini tarbiyalashda musiqa darslarini ta'lim-tarbiyaning musiqa darslarini ta'lim tarbiyaviy jarayonining mustaxkam talablariga muvofiq musiqaviy estetik tarbiyaning to'laqonli bo'lishi uchun musiqa xonalarida ovozni yozib oluvchi va qayta eshittiruvchi apparatlar nota to'plamlari, musiqa to'g'risida kitoblar ko'rgazmali qurollar kompozitorlarining portretlari proyektor apparatlari musiqa asboblari turkumi bo'lmog'i kerak. Darsda o'quvchilarni tarbiyalashda o'qitish rivojlantirish ularga ta'lim berish bilan birgalikda va o'zaro aloqalardorlik amalga oshirishi lozim. Bu o'zbek musiqa pedagogikasining g'oyat muhim prinsiplaridan biridir. Musiqa san'atining mazmunini tushuntirish tinglovchining umumiy madaniyatida shuningdek uning tahlil tayyorgarlikka egaligiga bog'liq bo'lib, tahlil tayyorgarlik o'z navbatida tinglovchi e'tiborining aktivlik darajasida ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchining idroki bayroq bo'ladi. Xalq donishmandligining go'zal ko'rinishi

bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi bilan yoshlar dunyoqarashida muhim vositasi sifatida musiqa maktablarida keng o'rganilmoqda. Xususan o'zbek xalq musiqa merosida qo'shiq, xalq psixologiyasi, ruhiyatini, xalq hayoti va dunyoqarashi haqida mukammal ma'lumot mavjudki, bu ohanglarni idrok etish uchun o'sha xalq ruhiyatini tushunish mumkin. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy-estetik ruhda tarbiyalashda, ular qalbida go'zallikka havas uyg'otishda san'atning barcha turlari qatori qo'shiqning xizmati ham benihoya kattadir. Biroq, kimdir kinoga tushmasligi, yana kimdir teatrga bormasligi yoki kimdir ko'rgazma zaliga borishga vaqt topmasligi mumkin. Ammo mening nazarimda, qo'shiq hamma eshitadi. Chunki qo'shiq uyda ham, ishxonada ham, yo'lda ham, hatto samolyotda ham xar doim hamrohdir. Shunday ekan, xonandaga boshqa san'atkorlarga qaraganda ko'proq ma'suliyat yuklanadi. Shu bois xonanda o'zining bosib o'tgan yo'lga tanqidiy ko'z bilan qarashi, kelajagiga esa g'oyatda jiddiy nigoh tashlashi kerak. Bugungi xonanda har jihatdan savodli, xushyor o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchan bo'lishi kerakligini hayotning o'zi taqozo etib turibdi. Qo'shiq xoh televideniye, xoh radio karnaylar orqali, xoh konsert zallarida yangramasin uni minglarcha kishilar tinglaydi. Mana shu muhim g'oyaviy, ma'naviy quroldan xalollik bilan, odilona foydalanishi kerak, uning zarbi, yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va boshqarish esa muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi yaratgan musiqaviy merosining ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimiz maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, inson turmushini qo'shiqsiz, musiqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy oziq berib qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muxim rol o'ynagan. Mashxur olim Abu Ali ibn Sino, Avisina o'zining "Kito bashShifo" asarida yozishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalaridan biridir deydi. Musiqa va kuyning paydo bo'lishini olim shunday izoxlaydi: "Tabiatning o'zi odamlarga nutq ato qilgan. U shartli xarakterga ega bo'lib, xushomad qilganda, o'z tobeligini bildirganda yoki yalinganda tovush mayinlashib, natijada so'z ta'sirli chiqadi va o'z maqsadiga erishadi. Keyin taqlid qilish, ayniqsa odamlarga katta orom bog'ishlaydi". Umuman olganda mehnat jarayonida inson ongi takkomillashdi, hamma modiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi ommaning bevosita ma'naviy ijodi folklor tarzida ya'ni ijod vujudga keldi va taraqqiy etadi. Bu esa xalq og'zaki ijodiyotining go'zal namunalari bo'lmish qo'shiqlar, musiqalar, raqslar, dostonlar, ertaklar vujudga kelishi uchun sababchi bo'ldi.

## Adabiyotlar

1. Shoira Umrzoqovna Norova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI // Sciyentific progress. 2021. №5.
2. I.M. Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari.-T.O'zRFA nashriyoti 1959
3. D.Rajabov.T.Rajabov Xalq qo'shigi va musiqa ijrochiligi Ilmiy risola.Toshkent Navro'z nashriyoti 2018

4. Ражабов Т. И. Тематическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3. – С. 61-63.
5. Ражабов Т. И., Ибодов У. Р. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).
6. O`ktam Rasulovich Ibodov. Instrumental musiqa insonga psixologik ta'sir vositasi sifatida. "XXI asr psixologiyasi, pedagogikasi, falsafasi dolzarb masalalari" 25 iyun 2020 p. 244-248.
7. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
8. Radjabov, T. I. (2020). Yosh maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida bolalar folklor qo'shiqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Fan va ta'lim axborotnomasi, (5-2 (83)).
9. Ibodov O'ktam Rasulovich Musiqiy madaniyat darslarida klassik musiqa roli / / Akademiya. 2021. №2 (65).
10. T.I.Rajabov o`zbek musiqa fol`klorida buxoro bolalar fol`klor qo`shiqclarini ijro etish uslublari. “ижтимоий соҳани модернизация- лаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар”республика илмий-амалий анжуман материаллари 140-143 бетлар 2021 йил 28- май.
11. Madrimov.B.Kh , Rajabov T. I. Nurullaev F.G. TEACHING BUKHARA CHILDREN FOLK SONGS IN MUSIC LESSONS AS AN ACTUAL PROBLEM. Skopus:International Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020йил.ISSN: 1475-7192
12. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор кўшиқларининг ўрни. Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент 2016 й. 19 апрель. 122-126 бетлар.
13. Rajabov. T. I.EDUCATIONAL IMPORTANCE OF CHILDREN'S FOLKLORE SONGS IN MUSIC CULTURE CLASSES. TJAC. Thematics journal of arts and culture ISSN Informing scitntific arworld throun the world through research ahd developmeht IMPACT FACTOR(UIF) 7.34 IMPACT FACTOR (SJIF) 2021 7.34 2249-9814 VOL.5. ISSUE 1 <http://thematicsjournals.in/index.php/tjac/>

---

**4-ШЎБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ - ХАЛҚИМИЗНИНГ БЕҚИЁС  
МАЪНАВИЙ МЕРОСИ**

---

<b>Norova Sh.U.</b> Xalq musiqa ijodini o'rganishda xalq qo'shiqlarining o'rni	120
<b>Qo'shayev I.A</b> O'zbek xalq musiqa ijodi	122
<b>Qurbonov J.J.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning qo'shiq aytish malakalarini ostirish	123
<b>Karimov O.I.</b> Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti	125
<b>Raxmatova M.O.</b> O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda hofizlik san'ati	127
<b>Ramazonova O'.X.</b> An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tanlash va tarbiyalash	129
<b>Rahmonova I.M.</b> O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda qo'shiqlarning o'rni	131
<b>Gulov Sadritdin Niyozovich.</b> Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati darslari"ning mohiyati	133
<b>Ибодова Севарабону.</b> Умумий ўрта таълим мактабларида халқ қўшиқларининг тарбиявий аҳамияти	135
<b>Ibodov O'.R.</b> Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	139
<b>Ахтогов Х.Х.</b> Shaxsni tarbiyalash va shakllantirishda musiqaning o'rni	141
<b>Давлатназар Юсупов.</b> Ўзбек бахшичилик санъатининг ривож ва ёшлар	143

---